



BIOGRAFIK METOD VA JANRLAR

Osiyo xalqaro univeriteti
O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligii
magistranti **Hakimova Shahnoza**

Annotatsiya: Mazkur maqolada biografik metodning shakllanish jarayoni, uning badiiy adabiyotdagi o'rni hamda ijodkor shaxs obrazini yaratishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ushbu metodning biografik va avtobiografik asarlar bilan aloqador jihatlari, qahramonning tashqi qiyofasi, ichki kechinmalari va individual xarakterini aks ettirishdagi imkoniyatlari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida biografik metodga doir janrlarning inson shaxsiyatini anglash, tarixiy hamda madaniy qadriyatlarni saqlash bilan bir qatorda kitobxon tafakkurini boyitishdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: O'zbek adabiy tanqidchiligi, Buxoro adabiy muhiti, biografik metod, adabiy portret, tanqidiy-biografik ocherk, tarjimayi hol, biografik ma'lumotlar va xotiralar, qahramonning tashqi qiyofasi, ichki kechinmalari.

Abstract: This article discusses the formation process of the biographical method, its role in fiction, and its importance in creating the image of a person. The article also scientifically examines the aspects of this method related to biographical and autobiographical works, its possibilities in reflecting the appearance, inner experiences, and individual character of the hero. The study reveals the role of biographical genres in understanding human personality, preserving historical and cultural values, and enriching the reader's thinking.

Keywords: Uzbek literary criticism, Bukhara literary environment, biographical method, literary portrait, autobiography, biographical information and memories, the hero's appearance, inner experiences.

Kirish O'zbek adabiy tanqidchiligida ijodiy maydonga kelgan asarlarni tahlil qilish bilan bir qatorda muallif hayot yo'li va ijodini mushtarak holda



o'rganish dolzarb masalalardan bo'lib kelmoqda. Har qanday ijod namunasi muallif shaxsiyatiga aloqador chizgilar, ichki kechinma va ruhiy holatlar, ba'zan real voqealar bilan boyitilgan bo'ladi. Biografik metodning maqsadi esa ana shu chizgilarni topa olish, ijofkor hayoti va ijodini o'zaro chambarchas aloqada o'rganishdan iborat. Bu borada o'tgan asrda qilingan ishlar bo'lishiga qaramay zamonaviy tanqidchiligmiz uchun yetarli deb bo'lmaydi.

Adabiyotshunos olim D.Quronov o'zbek adabiyotshunosligida biografik metodning yetarlicha qo'llanilmay kelayotganligi sababini quyidagicha izohlaydi: "Biografik metod badiiy asar muallifining hayot yo'li kontekstida o'rganishni nazarda tutadi. Badiiy asarda ijodkor shaxsiyati akslangani bois undagi qator o'rinlar muallif biografiyasi kontekstida yorqinroq anglashiladi. Shunga ko'ra, biografik metod asarga muallif tomonidan yuklatilgan mazmunni anglashda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, A.Qahhorning "O'g'ri" va "Dahshat" hikoyalari o'tmishdan bahs yuritadi, biroq ularni biografik kontekstda olinsa, adib har ikki hikoyada ham ular yaratilgan davr muammolarini badiiy idrok etishga, o'sha davr haqidagi, davr kishilari haqidagi fikrlarini ifodalashga harakat qilgani anglashiladi. Biografik metodning qanchalik samarali bo'lishi ko'p jihatdan tadqiqotchi qo'l ostidagi biografik materialga bog'liq bo'lib qoladi. O'zbek adabiyotshunosligida biografik metodning yetarli darajada samara bilan qo'llanilmay kelayotgani ayni shu narsa - biografik materialning yetarli emasligi bilan izohlanadi"¹

Muhokama O'zbek tanqidchiligidagi janrlar majmui tarixan vujudga kelgan yaxlit tizim bo'lib, xilma-xil tipdagi tanqidiy asarlarning murakkab va o'ziga xos aloqalari hamda o'zaro ta'siri zahirida bunyodga kelgan. Janrlar tizimining shakllanish jarayoni tanqidiy tafakkur taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Har bir janrning o'z xususiyatlari bo'lishiga qaramay, ularni mushtarak etuvchi jihatlar ham mavjudki, xuddi shu umumiylik ularni yaxlit tizimga birlashtiradi. Adabiy portret, esse, tanqidiy –biografik ocherk singari janrlar yozuvchi ijodini umumlashtirib o'rganish, baholash, talqin etish, targ'ib qilish jihatidan bir

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004



maydonda birlashadi. Ular ijodkor shaxsi, muhiti, iste'dodining shakllanishi, adabiyotda tutgan o'рни singari muammolarga oydinlik kiritadi.² Tanqidiy ocherk, adabiy portret va esselar yozuvchi hayoti va ijodini umumlashirish xarakteriga egaligi bilan adabiyotdagi boshqa janrlardan farqlanib turadi.

Biografik xarakterga ega asarlarda voqealar bayoni bilan bir qatorda insonning kundalik turmush tarzi, mehnat faoliyati, maqsad va intilishlari, ruhiy kechinmalari hamda dunyoqarashidagi o'zgarishlar chuqur yoritiladi. Qahramonning atrof-muhitga, jamiyatga va insonlarga bo'lgan munosabati voqealar rivoji jarayonida ochib berilib, uning xarakteri va ma'naviy qiyofasi shakllanish bosqichlari ko'rsatiladi. Natijada kitobxon nafaqat voqealar mazmunini anglaydi, balki inson shaxsiyatining murakkab rivojlanish jarayonini ham kuzatish imkoniga ega bo'ladi. Biografik xarakterli asarlar orasida adabiy portretlar salmoqli o'rin egallaydi. Bunday asarlar har qanday davrda o'z qiymati va dolzarbligi bilan bir qatorda yozuvchi shaxsiyatini ochishda ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiy portret ijodkor yozuvchi hayoti va adabiy tanqidning o'zaro kesishgan nuqtasida namoyon bo'ladi. Unda faqatgina ijodkor haqida ma'lumotlar emas, uning ruhiy olami, hayotiy qiyofasi aks etadi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov adabiy portretga "Tanqidchilikda keng tarqalgan yozuvchi hayoti va ijodini yorituvchi adabiy-tanqidiy asarlar janri" deya ta'rif beradi.³

Badiiy asardagi portret (qahramon tasviri): Yozuvchi qahramonning tashqi ko'rinishi orqali uning ichki dunyosini, xarakter xususiyatlari va ruhiy kechinmalarini ochib beradi. Masalan, qahramonning qattiq tikilgan ko'zlari uning jasurligini, titrayotgan qo'llari esa qo'rquvini yoki hayajonini bildiradi. Yozuvchi qahramonning ko'z qarashi, yuz chizgilari, gavda holati yoki xatti-harakatlarini tasvirlash orqali uning xarakteriga xos bo'lgan fazilatlarni ochib beradi. Natijada portret obrazning individualligini ta'minlaydi hamda o'quvchining qahramon haqidagi tasavvurini yanada boyitadi.

² Nazarov B, Rasulov A, Qahramonov Q, Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. —Toshkent: Cho'lpon, 2012

³ Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. —Toshkent: Akademnashr, 2010.



Mustaqil adabiy-tanqidiy janr sifatida esa yozuvchi, shoir yoki tarixiy shaxsning shaxsiyati, ijodiy yo'li, yutuq va kamchiliklari adabiy-tanqidiy ruhda, hujjatli va biografik dalillarga tayangan holda yoritiladi (masalan, Sadriddin Ayniyning adabiy portretlari). Adabiy portretning badiiy-estetik mohiyati obrazni o'quvchiga jonli, tushunarli va ta'sirchan qilib yetkazishdan iborat. Mazkur turdagi portretlar biografik ma'lumotlar, tarixiy hujjatlar, xotiralar hamda adabiy manbalarga tayangan holda yaratiladi va shaxsning ijodiy qiyofasini har tomonlama ochib berishga xizmat qiladi.

Adabiy portret janri adabiyotshunoslikdagi tanqidiy-biografik yondashuvning mahsuli bo'lib, XX asr o'zbek tanqidchiligida yetakchi va faol janrlardan biri darajasiga ko'tarildi. Ilmiy-biografik tadqiqotning keng tarqalgan janrlari ichida adabiy portret eng faolidir. Adabiy portret muallifining asosiy maqsadi san'atkorning o'ziga xos his etilgan, qalbidan o'tkazilgan alohida shaxsning dunyosi, uning hayoti, tarjimai holi asosida badiiy obraz yaratishdir"⁴ U badiiy asarning estetik ta'sir kuchini oshirish, qahramonning individual xususiyatlarini namoyon etish hamda muallifning g'oyaviy-badiiy niyatini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, adabiy portret badiiy ijod va adabiy tanqidning muhim kategoriyalaridan biri sifatida obraz yaratish san'ati hamda shaxs fenomenini anglash jarayonida alohida o'rin tutadi. Adabiy portretning asosiy vazifasi obraz yoki shaxs haqidagi tasavvurni aniq, jonli va ta'sirchan shaklda gavdalantirishdan iborat. Adabiy portret janri haqida so'z borar ekan bevosita Sadiddin Ayniy nomini tilga olish joiz. Adibning boy ijodiy merosi bugungi milliy tanqidchilгимiz rivojida salmoqli o'rinni egallaydi.. J.Ikromiyning xotirlashicha :''uning beqaror yuragi Buxoro uchun achinardi.U butun borlig'ini ana shu Ahmad Donish, Hayrat va boshqa ulug'lar Buxorosini ta'rif-tavsiflashga, ularni ko'klarga ko'tarishga bag'ishlagan edi, ularga nisbatan chin ko'ngildan muhabbat izhor qilgan edi''⁵Sadriddin Ayniy asarlarida biografik metoddan o'rinli va keng foydalanadigan

⁴ Ахмедова Ш. Адабий танқидчилик жанрлари. —Тошкент:Фан, 2008.

⁵ Айний замондошлари хотирасида», Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978.



ijodkor hisoblanadi. Uning tanqidiy-biografik ocherklari, adabiy portretlari, tarjimayi hollarini o`qiganda Buxoro adabiy muhiti bevosita kitobxon ko`z oldida namoyon bo`ladi. Ijodkor o`zi hamsuhbat bo`lgan, bir davrada o`tirgan, o`rni kelsa bir hujrada yashagan shoirlar haqida o`z xotiralarini xronologik bir tarzda yozadi.

Qolaversa, uning "Esdaliklar" hamda "Qisqacha tarjimayi holim" asarlarini o`qish davomida XIX asr Buxorodagi ijtimoiy hayot, siyosiy vaziyat haqida real ma`lumotlarga ega bo`lamiz. Ayniy xotiralarining tasviri sodda va tushunarlilik , realizm ustunligi bilan ajralib turadi. Aynan shu realizm asosida biz biografik ma`lumotlarga ega bo`lamiz. Bunday uslub va yondashuv milliy adabiyotimizda yangicha yondashuv va yo`nalish kirib kelayotganining ilk nishonalaridan edi. Shu zaylda xotiralar yozish an`anasi zamonaviy o`zbek adabiyotida ham ancha keng tarqaldi. Ozod Sharofiddinov, Said Ahmad, Laziz Qayumov va boshqalarning adabiy portretlari kitobxonlarga ma`lum.

Tanqidiy-biografik ocherk janrida esa munaqqid hujjat va dalillarga tayanib, yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi mulahazalarini kitobxonlar va mutaxassislar davrasi uchun o`rtaga tashlaydi. Milliy tanqidchiligimizning 30-yillarida Olim Sharafuddinovning Alisher Navoiy", Sadriddin Ayniyning "Shayx ur-ra'is Abu Ali ibn Sino" kabi ocherklarida shunday xususiyat namoyon bo`ladi. Adiblar ijodini xilma-xil hayoliy muammolar asosida monografik yo`sinda tadqiq etishga bo`lgan ehtiyoj natijasida esa Yusuf Sultonning "Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodiyoti", L.S.Braginskiyning rus tilida Sadriddin Ayniy hayoti va ijodiga bag`ishlangan adabiy ocherklar yuzaga keldi.

Biografik metod orqali ijodkor shaxsiyatini o`rganishda yozuvchi Said Ahmadning asarlari ham salmoqli o`rin egallaydi. Adibning G`afur G`ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Sadriddin Ayniy, Shayxzoda, Mirtemir, Turob To`la, O`lmas Umarbekov, Saida Zunnunovaga bag`ishlab yozgan xotiralarida ijodkorlarning portreti chiziladi, ularning hayot yo`lidagi turfa sinovlar muallif qalami orqali kitobxonga yetkaziladi. Kitobxon ham bevosita qahramon bilan birga asar voqealariga singib ketadi. Masalan, Oybek haqidagi xotiralarda ijodkor fe`l –atvori,



uning tabiatidagi bosiqlik, qiyinchiliklar oldida mardona tura olishini Said Ahmad o'z holicha, ortiqcha jimjimador bo'yoqlarsiz tasvirlaydi. Ijodkor bilan bir qatorda beixtiyor o'sha davr nafasi ham ufurib turadi. bunday asarlar ijodkor biografiyasini o'rganishda, qolaversa milliy adabiyotimiz uchun ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa Biografik metod orqali asarlarni tahlil etish muallif aytmoqchi bo'lgan fikrni teranroq anglashga, ko'rsatmoqchi bo'lgan makon va zamonni tasavvur qilishga, tasvirlamoqchi bo'lgan shaxsiyatini izchil o'rganishga ulkan imkoniyatlar yaratadi. Binobarin, biografik xarakterga ega asarlar kitobxon o'quvchilarga xalqning o'tmishi, milliy qadriyatlari, tarixiy taraqqiyot bosqichlari hamda mashhur ijodkorlar, davlat va jamoat arboblarning hayoti va faoliyati haqida muhim ma'lumotlar beradi. Mazkur asarlar vositasida yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani asrash, Vatanga muhabbat va ma'naviy merosga hurmat tuyg'ularini shakllantirish imkoniyati kengayadi. Shuningdek, ularda aks etgan hayotiy tajribalar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, insoniy fazilatlarni qadrlashga va hayotiy xulosalar chiqarishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004
2. Nazarov B, Rasulov A, Qahramonov Q, Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. — Toshkent: Cho'lpon, 2012
3. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. — Toshkent: Akademnashr, 2010.
4. Ахмедова Ш. Адабий танқидчилик жанрлари. — Тошкент: Фан, 2008.
5. Айний замондошлари хотирасида», Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978.